KONTENTNI BOSHQARUVCHI TIZIMLARI (CMS) YORDAMIDA TA'LIMIY SAYTLAR YARATISH

Ermonov Sherzod Ibrayim o'g'li - Guliston davlat pedagogika instituti o'qituvchi

Anotatsiya: Maqolada ta'limni boshqarishda raqamli texnologiyalar imkoniyatlari va istiqbollari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek kontentni boshqaruvchi tizimlari yordamida ta'limiy saytlar yaratish platformalaridan foydalanish haqida ma'lumotlar berildi.

Kalit so'zlar: Ta'lim, Pedagogik dasturiy vostalar, kontentni boshqaruvchi tizimlari, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), Masofaviy o'qish.

So'nggi yillarda internet omma hayotiga shunchalik jadal ta'sir ko'rsatmoqdaki, bu bilan u nafaqat inson hayotining muhim qismiga aylanmoqda, shuningdek ta'limni boshqarishda raqamli texnologiyalar imkoniyatlari rivojlanishida katta hissa qo'shmoqda. Internet virtual axborot makoni bo'lib, bu makon millionlab web saytlardan iborat. Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan keng miqyosda foydalanishda har xil manbalarda turli ko'rinishlarda: "Raqamli ta'lim", "Elektron ta'lim", "Axborotlashgan ta'lim", "Masofali ta'lim", "Virtual ta'lim", "Ta'limda multimedia texnologiyalari" va boshqa shakllarda bir-biriga sinonim bo'lgan ko'rinishlarda uchraydi. Bularning barchasini umumiy ma'noda - o'qitish jarayonini yuqori sifatli axborot va o'quv-uslubiy ta'minot bilan ta'minlashga imkon beradigan elektron va masofaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalangan holda ta'lim resurslarini to'plash, tizimlashtirish, saqlash va undan foydalanishga mo'ljallangan axborot texnologiyalari va vositalar to'plamidir. Ta'limni boshqarishda ham turli xil tizimlar mavjud. Bunday tizimlardan biri sifatida CMS (content management system - kontentni boshqaruv tizimi) aytishimiz mumkun.

CMS - tayyor shablonli tuzilmalar, ma'lumotlarni kiritish va dizayn ishlariga mo'ljallangan funksiyalar to'plamidan iborat platforma. Shuningdek, CMS matnli va multimediali sahifalardan iborat saytlarni qulay va oson yaratish hamda o'zgartirish (qo'shish, tahrirlash va o'chirish) imkonini beradigan boshqaruv tizimidir. Saytda yangi sahifalar yaratish, mahsulotlar katalogini o'zgartirish, buyurtma berish kabi jarayonlarni amalga oshirish imkoniyatlarini ham beradi. Har qanday internet sayti HTML tili, CSS kaskadli stillar jadvali, PHP, JavaScript singari web texnologiyalar hamda MySQL kabi ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari yordamida yaratiladi. Sayt tarkibida biz ko'radigan barcha materiallar (matn, rasm, audio, video va b.) ushbu web-texnologiyalar yordamida sahifada chiqariladi. Ma'lumki, bunday jarayon ushbu

web-dasturlash tillarini yaxshi o‘zlashtirgan mutaxassis tomonidangina amalga oshiriladi. CMS esa dasturlash tillaridan bexabar foydalanuvchiga ham sayt yaratish va uni boshqarish imkonini bera oladi.

Elektron ta'lim muhitini tashkil etish va axborot texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari, funktsional imkoniyatlari hamda elektron ta'lim resurslaridan foydalanish bo‘yicha bir qator olimlar, jumladan mamlakatimizda I.M.Ibragimov, A.Abduqodirov, U.Begimqulov, N.A.Muslimov, N.I.Taylaqov, F.M.Zakirova, M.E.Mamarajabov, S.Tursunovlar, D.Mamatov, xorijiy mamlakatlarda Z.Siambaton, M.Fakhriza, V.A.Kuklev, A.L.Safonova, M.I.Solodkova, E.S.Polat, A.Andreev, I.Zaxarova, V.V.Kuznetsov, M.P.Lapchik, B.Andresen, M.Burns, M.Hendersonlarning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

Mamlakatimiz olimlaridan A.Abduqodirov va A.Pardaevlarning “Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti” nomli monografiyasida chet ellik hamda Respublikamiz olimlarning ilmiy tadqiqotlari tahlil qilinib, unda masofali o‘qitish orqali: o‘quv jarayonini yakkalashtirish, tabaqalashtirish, talabalarga o‘z-o‘zini nazorat qilish, murakkab hisoblash ishlarini kompyuter amalga oshirganligi hisobiga o‘qish va vaqtni tejash, ta'lim oluvchilarga aniq bir ko‘rinishdagi fikrlashni rivojlantirish, motivatsiyasi, bilish faoliyatini kuchaytirishga imkoniyat beradi degan xulosaga kelingan [1].

Z.Siambaton Nasional Informatika dan Technology Jaringan jurnalida yozgan maqolasida ta'limni boshqarish tizimida veb-saytlar elektron axborot vositasi sifatida ma'lumotni uzatish va jo‘natish jarayonini soddalashtiradi deb takidlagan. Shuningdek Bali Davlat Politexnika universiteti buni amalga oshirmoqchi bo‘lgan kampuslardan biri, hozirgi vaqtda Elektrotexnika bo‘limi veb-sayti hali ham WordPress CMS-dan foydalanadi [2].

Muhokama: Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarini boshqarishda ham web saytlarni o‘rni juda katta. Zamonaviy saytlar oddiy saytlarga nisbatan ancha ilgarilab ketdi. Zamonaviy saytlar bejirim dizayn va puxta o‘ylangan reklama usullaridan tashqari, takrorlash qiyin bo‘lgan qat'iy funksiyalarni o‘z ichiga olgan sahifalar to‘plamidan iborat. Shu sababli, aksariyat foydalanuvchilar turli funksiyalarga ega zamonaviy saytni “nol”dan yozishdan ko‘ra, ommalashgan CMS platformalardan foydalanishni ma'qul ko‘radi. Shuningdek, Respublikamizdagi ko‘plab ta'lim muassaslari virtual ta'lim muhiti sifatida aynan Moodle dasturiy majmuasi foydalanib kelinmoqda. Xususan, Toshkent axborot texnologiyalari universitetining “Virtual ta'lim muhiti” (http://etuit.uz), O`zbekiston Milliy universitetining «Ochiq o`quv-axborot markazi», Xalq ta'limi vazirligi qoshidagi «Multimedia umumta'lim dasturlarini rivojlantirish markazi» (http://moodle.uzedu.uz).

CMS platformalar ikki guruhga bo‘linadi:

- ochiq kodli (bepul tarqatiladigan), foydalanuvchi tomonidan ichki kodining o‘zgartirilishiga ruxsat beriladigan tizimlar: WordPress, Joomla, Drupal, Typo3, OpenCart, Serendipity, Dotclear, ImpressPages, Chamilo, Magento, PrestaShop;

- yopiq kodli (tijorat maqsadida tarqatiladigan), foydalanuvchi tomonidan ichki kodining o‘zgartirilishiga ruxsat berilmaydigan tizimlar: Shopify, 1C-Битрикс, CS-cart, DataLife Engine, BigCommerce , Shop-Script.



CMSning afzalliklari quyidagilardan iborat:

Sayt bilan ishlash jarayonining soddaligi va qulayligi. CMSni boshqaruv tizimi har qanday foydalanuvchiga, bilim darajasidan qat’iy nazar, resurslar ustida to‘liq ish olib borish [saytni boshqarish, ma’lumotlarni tahrirlash, tuzilmani sozlash (bo‘limlarni qo‘shish va o‘chirish)] imkonini beradi. Bunda sayt strukturasini ishlab chiqish va dasturlash bo‘yicha texnik bilim yoki ilg‘or ko‘nikmalar talab etilmaydi.

Qisqa vaqt ichida, yuqori tezlikda sayt yaratish imkoniyati. Dastlab sayt yaratish ko‘p vaqt talab qiladigan, mashaqqatli jarayon bo‘lgan. CMS ish jarayonining ko‘plab qismi avtomatlashtirganligi sababli sayt va uning alohida qismlarini yaratishda vaqt sezilarli tejaladi.

Ortiqcha qiyinchiliklarsiz chiroyli dizayn yaratish imkoniyati. Tizim boshqaruvi sayt dizayni ustida ishlash va uning tarkibini yaxshilash, yangi elementlarni qo‘shish va boshqarish imkonini beradi.

Ko‘pfunksionallik. Zamonaviy boshqaruv tizimi murakkab ko‘p blokli tuzilmaga ega bo‘lib, ko‘proq konstruktorga o‘xshab ketadi. Bunday universal, moslashuvchan

konstruksiya ixtiyoriy foydalanuvchiga takrorlanmas, o'ziga xos sayt yaratish imkonini beradi.

Foydalanish huquqini boshqarish. CMS sayt foydalanuvchilari o'rtasida rollarni taqsimlash imkoniyatiga ham ega. Masalan, mehmon sifatida kirgan foydalanuvchi biror-bir sahifaga izoh qoldirishi mumkin, lekin menyu bloklarini yoki sahifa tarkibini o'zgartirish huquqiga ega emas va saytning boshqa elementlariga ta'sir o'tkaza olmaydi.

Xulosa. Ta'lim tizimini boshqarishda hozirgi kunda kontentni boshqaruv tizimlar katta ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, kontentni boshqaruvchi platformalardan WordPress, Joomla, Drupal, Typo3, OpenCart, Serendipity, Dotclear, ImpressPages, Chamilo, Magento, PrestaShop keng qo'llanilmoqda. Elektron ta'lim muhitidan foydalanish tezkor aloqani ta'minlaydi, qisqa vaqt ichida kerakli ma'lumotlarni tezda topish, vaqtni tejash, bilimlarni tezda tekshirish va internet orqali o'quv-ma'lumotlarini yangilash imkoniyatini beradi.

Kontentni boshqaruvchi platformasida, shuningdek barcha ijtimoiy tarmoqlarda ham ta'lim subyektlarining mas'uliyatliligini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish kabi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

ADABYOTLAR

1. Abduqodirov A., Pardaev A. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. -T.- "FAN" nashriyoti, 2009.-145 b.

2. Mhd. Zulfansyuri Siambaton, Muhammad Fakhriza. Aplikasi content management system (cms) pada joomla untuk membuat web service. Jurnal Nasional Informatika dan Technology Jaringan. -2016. -11 b.

3. Muhammad N. O 'quv jarayonida raqamli ta'lim muhitidan foydalanishning samaradorligi //Research and Publications. – 2024. – T. 1. – №. 1. – C. 265-268.

4. A. Abdukodirov, A.X. Pardaev. Masofali o'kitish nazariyasi va amaliyoti. – T.: Fan, 2009. 6. S. Yaremchuk. Sistema upravleniya obucheniem Claroline. // Sistemnыy administrator, 7-iyul 2008. – S 82–85.

5. Sh.Ermonov. Международный научный журнал «Научный Фокус». O'qituvchilar zamonaviy pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish kompetensiyasini shakllantirish nomli maqola. No 8(100), часть 1 Декабря, 2023.